

Dorivor o'simliklar



O'zbekistonda insonlarning sog'lom bo'lishiga yordam beradigan ko'plab dorivor o'simliklar o'sadi. Ulardan choy, damlama va dori tayyorlanadi. Bu o'simliklar haqiqiy xazina, shuning uchun ularni asrab-avaylash kerak.



Na'matak – pushti gulli va qizil mevali buta. Na'matak mevalari juda foydali bo'lib, ularda ko'p miqdorda **C vitamini** bor.



Bo'znoch – uzoq vaqt ochilib turadigan, sarg'ish momiq gullarga ega chiroyli o'simlik. Undan tibbiyotda foydalaniladi.



Toshcho'p – gullari oq, pushti yoki binafsharang bo'lgan xushbo'y mayda o'simlik. Mazali va foydali bo'lishi uchun u choyga qo'shiladi.



Limono't – yashil yaproqli, limondek yoqimli hidga ega o't-o'simlik. U asabni tinchlantiradi va yaxshi uxlashga yordam beradi.



Dastorbosh – soyabon shaklidagi oq rangli gullari to'p-to'p bo'lib ochiladigan past bo'yli o'simlik. U teridagi tirnalgan va kesilgan joylarning bitishiga yordam beradi.



Yalpiz – juda xushbo'y o'simlik. U choy va konfetga qo'shiladi. Yalpiz odamni tetiklashtiradi, tinchlantiradi va bosh og'rig'ini yengillashtiradi.



Qizilpoycha – yorqin sariq gulli o'simlik. U shamollashni davolaydi va yaralarning bitishiga yordam beradi.



Zubtutum – yirik yashil yaproqli o't-o'simlik. Uning bargi shikastlangan joyga qo'yilsa, tanadagi qizarish va og'riq kamayadi.



Momaqaymoq – yorqin sariq gulli, yumshoq yashil yaproqli o'simlik. Momaqaymoq immunitetni mustahkamlaydi. Yozda uning gullari oppoq sharchaga aylanadi. Bolalar bu momiq sharchalarni puflab, urug'larning har tomonga parashut kabi uchishini yoqtiradilar.



Dorivor o'simliklarni qayerlarda uchratish mumkin?

Bo'znoch, toshcho'p, limono't va qizilpoycha kabi o'simliklardan turli xil dorilar tayyorlanadi. Bu o'simliklar yana qayta o'sishini hisobga olib, ularni ehtiyotkorlik bilan yig'ib olish zarur.

Har bir o'simlik tabiatning muhim qismidir. Hatto momaqaymoq va zubturm kabi oddiy o'simliklar ham tabiat uchun muhim. Ular asalarilar va boshqa hasharotlarga oziqa bo'ladi. O'simliklarga g'amxo'rlik qilish, ularni payhon qilmaslik va behuda yulib tashlamaslik muhim, shunda ular bizga zavq bag'ishlaydi va foyda keltiradi.



1. Qanday o'simliklar **dorivor o'simliklar** deb ataladi?
2. O'zbekistonda o'sadigan uchta dorivor o'simlik nomini ayting. Ularning qanday foydasi bor?
3. Nima uchun dorivor o'simliklarni asrash kerak?



Biror-bir **dorivor o'simlik** rasmini chizing. Uning nomi va qanday foyda keltirishini yozing. Ota-onangiz yoki buvingizdan uyda qanday dorivor o'simliklardan foydalanishlarini so'rang.

